

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**FRANSUZ TILI FANIDAN PEDAGOG KADRLARNING KASBIY
SERTIFIKATLASH TEST TIZIMI UCHUN TEST**

SPETSIFIKATSIYASI

FRANSUZ TILI FANIDAN PEDAGOG KADRLARNING KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TIZIMI UCHUN TEST SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya pedagog kadrlar (stajyor - o'qituvchi)ni fransuz tili fanidan bilim va ko'nikma darajalarini aniqlash malaka sinovining umumiy tamoyillari, me'yoriy asoslari, baholashning qamrovi, baholash mezonlari va malaka sinovini o'tkazish tartibiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning fransuz tili fani o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar egallashi lozim bo'ladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlashda qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida” 2024-yil 12-fevraldagi 87-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida”gi 233-son buyrug'i.

III. Baholash qamrovi

Fransuz tili fani o'qituvchilari uchun malaka sinovida jami 50 ta test savollari topshirig'i taqdim etiladi (40 ta mutaxassislik fanidan, 10 ta pedagogik mahoratga oid) va test topshiriqlarini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan *(yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari)* foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo'yicha taqsimoti

1- jadval

Mazmun sohasi	Baholanadigan konstruktlar	Test topshiriqlari soni
I. FRANSUZ TILI		40 ta
1. Tilning amaliy qo'llanilishi (1 - 35 savollar)		
Fonetika	- Minimal juftliklar (paires minimales) orqali ma'no farqlovchi tovushlarni kontekstga qarab ajratish (masalan: dessus/dessous, vent/vin, bon/pont); - Ko'p bo'g'inli so'zlarda va ritmik guruhlarda (groupe rythmique) urg'uning bo'g'inga tushishini aniqlash; - Gapning mazmuniga qarab mantiqiy urg'u qaysi so'zga tushishini belgilash; - Gapdagi mantiqiy urg'u va ohang (intonation) turlarini (ko'tariluvchi/pasayuvchi) farqlash.	8
Grammatika	- grammatik strukturaning nomini va qo'llanilish o'rinlarini tanlash; - berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash; - berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish; - berilgan gap yoki jumlani grammatik transformatsiya qilish (o'zgartirish); - grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash; - berilgan gapning grammatik jihatdan to'g'ri o'zgartirilgan variantini aniqlash; - o'xshash grammatik shakllardan ma'noga eng mosini tanlash; - orfografik savodxonlikni tekshirish, qaysi biri to'g'ri misol uchun: "mettez yoki metez".	8
Leksika	- berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash; - berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash; - so'z yasalishi qoidalari asosida berilgan kontekstga mos so'z yasash; - ma'nosi yaqin bo'lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash (near-synonyms: dire / parler / raconter / s'exprimer).	8

Pragmatika	- berilgan vaziyatga mos og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash; - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma’nosini anglash (sens littéral (to‘liq ma’no), interprétation non pertinente, sens opposé, sens exagéré); - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining ijtimoiy va kommunikativ jihatdan kontekstga mosligiga baho berish. - diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash (déclaration aléatoire, commentaire hors sujet, fait non pertinent, remarque confuse); - berilgan kontekstga mos muloqot strategiyasini aniqlash (faire une suggestion au lieu d’une demande, donner des informations sans rapport, exprimer une opinion au lieu de poser une question, ignorer l’intention du locuteur); - xohish yoki niyatni farqlash (donner un ordre direct, exprimer de la colère, poser une question non pertinente, faire une déclaration sans rapport avec l’intention).	8
2. O‘qib tushunish (36 - 40 savollar)		
O‘qib tushunish	- matnning asosiy g‘oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash; - matnda ochiq aytilmagan ma’lumotlar, fikrlar, g‘oyalarni anglash; - matndagi fakt va fikrni farqlash; - matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish; - matn qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog‘lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik) - matndagi argumentlarni topish, asoslovchi dalillar bilan.	8

**Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi
va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

1. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
Pedagogik mahorat	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ot-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	10

**Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi
jadvalda aks etgan:**

3-jadval
Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Testdagi ulushi
1	Bilish va tushunish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish	22
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish	23
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	5

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining natijasini (score brut) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javobga 2 ball, noto‘g‘ri javob uchun ball berilmaydi. Eng yuqori natija 100 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. 9-sinf “Décibel 5” (Méthode de français) M.Butzbach; R.Fache C.Martin, R.Nunez, D.Pastor; I.Saracibar. Didier FLE 2023;
2. 9-sinf “Décibel 5” (Cahier d’activités). M.Butzbach; R.Fache C.Martin, R.Nunez, D.Pastor; I.Saracibar. Didier FLE 2023;
3. 10-sinf “L’atelier+1” (Méthode de français) Marie-Noëlle Cocton, Marie Rabin, Julien Kohlman, Delphine Ripaud. Didier FLE 2023;
4. 10-sinf “L’atelier+1” (Cahier d’activités) Marie-Noëlle Cocton, Camille Dereeper, Julien Kohlman, Delphine Ripaud. Didier FLE 2023;
5. 11-sinf “L’atelier+2” (Méthode de français) Marie-Noëlle Cocton, Marie Rabin, Julien Kohlman, Delphine Ripaud. Didier FLE 2023;
6. 11-sinf “L’atelier+2” (Cahier d’activités) Marie-Noëlle Cocton, Camille Dereeper, Julien Kohlman, Delphine Ripaud. Didier FLE 2023;
7. Réussir le TCF. Olivier Bertrand. Elipses-2009;
8. Grammaire progressive du français. Niveau avancé. Michel Boulares. CLE international-2015.;
9. Exercices de grammaire. Niveau B2. Michel Boulares. Hachette-2019.;
10. Vocabulaire progressif du français. Claire Miquel. CLE international.2000;
11. Phonétique progressif du français. Niveau intermedia. Lucile Charliac. CLE international-2008.;
12. Les 500 exercices de grammaire B2 Marie-Pierre Caquineau Hachette 2011;
13. 1000 questions de français. Dominique Le Fur. Le Robert 2012;
14. 1000 mots pour réussir ... Claude Lebrun. Belin;
15. «Manuel de français. Попова И.Н., Казакова Ж.А., Ковальчук П.Н.». 2021–2024;
16. А. С. Кулигина («Le français en perspective») 2010–2015.

Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogi mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.